


QURILISH ISHLARI

2019-yil yanvar – noyabr

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida jami 14 038,3 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,8 %ni tashkil etdi.

Toshkent shahrida qurilish ishlari hajmi

(mlrd.so'm)




Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 3 746,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 52,6 % ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan 4,7 % punktga ko`paygan.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmining 58 %i to`g`ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,5 %ni tashkil etgan holda 8 148,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Yirik pudrat tashkilotlari

- o'sish sur'ati - 158,1 %
- ulushi -




Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- o'sish sur'ati - 120,5 %
- ulushi -




Norasmiy sektor


- o'sish sur'ati - 127,5 %
- ulushi -




Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'payib, 15,3 %ni tashkil etdi va 2 143,5 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 127,5 %ni tashkil etgani kuzatildi.




Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo`yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **73,5 %**i yoki **10 321,7 mlrd. so`m** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo`yicha yangi qurilish hisobidan **3 396,2 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **90,6 %** tashkil etdi.




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan **5 327,6 mlrd. so`m**, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **65,4 %** yangi qurilish ishlari bo`yicha ishlar bajarildi.



Norasmiy sektor bo`yicha yangi qurilish hisobidan **1 597,9 mlrd. so`m** ishlar bajarilib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan **74,5 %** tashkil etdi.

Qurilish ishlaringning faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)




- *Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari*
- *Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 18,1 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko`paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga ko`payib, 57,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 7,6 % punktga kamayib, 24,8 %ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha qurilish ishlari


(jamiga nisbatan % da)



Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 68,7 %ni tashkil etdi va o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 10,2 % punktga ko`paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 31,3 % ni (10,2 % punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi va 10,4 %ni tashkil etdi.

Qolgan 89,6 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

Mulkchilik shakllari bo`yicha qurilish ishlari tarkibi


(jamiga nisbatan %da)



Davlat mulkchiligi shaklidagi tashkilotlar tomonidan 834,0 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlarining hajmdagi ulushi 5,9 foizni tashkil qildi, ya`ni 2018 yil yanvar-noyabr holatiga nisbatan 1,8 % punktga kamaydi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan 13 204,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 94,1 foizni tashkil qildi.


Tumanlar kesimida qurilish ishlari



Qurilish ishlarining tumanlar kesimida eng yuqori o'sish sur'ati Chilonzor tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 134,8 %ni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)




● Yirik pudrat tashkilotlari ● Kichik korxonalar ● Norasmiy sektor

Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Bektemir (tumandagi qurilish hajmining 55,8 %ini tashkil etgan) va Mirobod (mos ravishda, 42,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)



- | | | | | |
|--------------|------------------|----------------|-------------|-----------|
| ● Bektemir | ● Mirzo Ulug'bek | ● Mirobod | ● Olmazor | ● Sergeli |
| ● Uchtepa | ● Chilonzor | ● Shayxontohur | ● Yunusobod | |
| ● Yakkasaroy | ● Yashnobod | | | |


Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Uchtepa tumanida kuzatildi - 2,5 %. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – tumandagi jami qurilish ishlarining 77,2 % tashkil etdi.



Toshkent shahrining yuqori o'sish sur'ati – 129,8 % ga ko'tarildi:

- "Yunusobod" va "Sergeli" metro liniyalarining qurilishi;
- Toshkent shahar halqa yo`lida elektro poyezdlar uchun temir yo`l qurilishi;
- Ko`ksaroy majmuasining qurilishi;
- Xalqaro Islom markazi binosining qurilishi;
- Toshkent shahridagi "Navro'z" istirohat bog`ining qurilishi;

- Toshkent-Sharqiy aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aviatsiya aeroport majmuasi qurilishi kabi bajarilgan qurilish ishlari natijasida yuzaga keldi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: *E.G'ułomov*
Aloqa telefoni: *(0371) 230-88-18*